

1-mavzu: Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

“Vatan qayerdan boshlanadi?”

(3–7 yoshli tarbiyalanuvchilar uchun)

(Davomiyligi: 20–25 daqiqa | Mashg‘ulot turi: Suhbat, oilaviy tajribani muhokama qilish va amaliy-ijodiy faoliyat)

Mashg‘ulotning maqsadi

Ta’limiy maqsad: Tarbiyalanuvchilarda Vatan tushunchasining oila, uy, bog‘cha, mahalla va yaqin insonlar bilan bog‘liqligi haqida yoshiga mos boshlang‘ich tasavvurlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarda oilaga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlariga g‘amxo‘rlik, uy va atrof-muhitni asrash orqali Vatanga mehr ko‘rsatish tuyg‘usini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Oilada eshitganlarini eslash va gapirib berish, savollarga javob berish, boshqalarni tinglash, o‘z fikrini rasm, so‘z va sodda amaliy faoliyat orqali ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar

bola oila a‘zolarini nomlaydi va oilasi haqida sodda gapira oladi;

“Kichik uyim — oilam, katta uyim — O‘zbekiston” tushunchasini yoshiga mos anglaydi;

oilada eshitgan fikrlarini sodda shaklda gapirib beradi;

uy va oilaga g‘amxo‘rlik qilishni Vatanga mehr bilan bog‘lay boshlaydi;

o‘z fikrini rasm, suhbat yoki kichik taqdimot orqali ifodalaydi.

Mashg‘ulotning borishi

Vaqt	Bosqich	Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyati	Metod va vositalar
2–3 daq.	Tashkiliy qism	Salomlashuv va ijobiy hissiy muhit. Tarbiyachi: “Bolajonlar, bugun oilamiz haqida gaplashamiz. Qani, bir-birimizga chiroyli tabassum qilamiz.”	Xayrixohlik doirasi
3 daq.	Mavzuga kirish	Uy va oila tasviri ko‘rsatiladi. “Bu nima? Uyimizda kimlar yashaydi? Uyimizni nega yaxshi ko‘ramiz?”	Ko‘rgazmali suhbat
6–7 daq.	Oiladan o‘rganganini muhokama qilish	Bolalar ota-onasi yoki oila a‘zolari bilan suhbatda eshitganlarini yoshiga mos ravishda aytib beradilar.	Suhbat, savol-javob

Oiladan o'rganganini muhokama qilish

Tarbiyachi: “Bolajonlar, o'tgan mashg'ulotdan keyin onangiz, otangiz, buvingiz yoki bobongiz bilan oilamiz va Vatanimiz haqida suhbatlashgan edingiz. Qani, kim uyda nimalar haqida gaplashganini aytib beradi?”

3–4 yosh: Bola oilada kimlar bilan yashashini aytadi yoki rasmdan ko'rsatadi. “Mening kichik uyim — oilam” jumlasini tarbiyachi bilan birga takrorlaydi.

4–5 yosh: Bola oila a'zolarini nomlaydi va oilasida birgalikda bajaradigan yaxshi ishlar haqida sodda gapiradi.

5–6 yosh: Bola oiladagi suhbatni qisqacha gapirib beradi; kichik uy — oila va katta uy — Vatan haqida nima bilib olganini aytadi. “Kichik uyim — oilam, katta uyim — O'zbekiston” jumlasini mustaqil aytadi.

6–7 yosh: Bola ota-onasi yoki boshqa oila a'zolaridan eshitgan fikrini qisqacha bayon qiladi va “Nega kichik uyimiz mustahkam bo'lsa, katta uyimiz ham mustahkam bo'ladi?” savoliga o'z fikrini bildiradi.

Didaktik o'yin: “Oilam uchun yaxshi ish”

Tarbiyachi turli vaziyatlarni aytadi yoki rasmlari kartochkalarni ko'rsatadi: onamga yordam berdim; o'yinchoqlarimni joyiga qo'ydim; buvimga suv olib berdim; ukamni xafa qildim; uyimizni ozoda saqladim; gulni sindirdim.

Tarbiyachi: “Agar yaxshi ish bo'lsa — chapak chalamiz. Agar yaxshi ish bo'lmasa — yo'q deb boshimizni chayqaymiz.”

Yakun: “Oilamizga qilgan yaxshi ishlarimiz ham katta uyimiz — Vatanimizga bo'lgan mehrimizning boshlanishi ekan.”

Amaliy-ijodiy topshiriq: “Mening oilam — mening kichik uyim”

3–4 yosh: tayyor oila yoki uy tasvirini bo'yaydi, oila a'zolarini ko'rsatadi.

4–5 yosh: uy va oila tasvirlaridan sodda applikasiya yaratadi.

5–6 yosh: “Mening oilam” mavzusida rasm yoki kichik kompozitsiya yaratib, bitta gap bilan izohlaydi.

6–7 yosh: “Kichik uyim — oilam, katta uyim — O'zbekiston” mavzusida mustaqil rasm yoki kompozitsiya yaratib, 2–3 gap bilan taqdim etadi.

Vaqt	Bosqich	Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyati	Metod va vositalar
4–5 daq.	Didaktik o'yin	“Oilam uchun yaxshi ish” o'yini. Bolalar vaziyatlarni tinglab, yaxshi va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajratadilar.	Didaktik o'yin
4–5 daq.	Amaliy-ijodiy faoliyat	“Mening oilam — mening kichik uyim” mavzusida yoshiga mos rasm, bo'yash, applikasiya yoki kompozitsiya.	Ijodiy faoliyat
2–3 daq.	Refleksiya va yakun	“Men oilamni...”, “Mening kichik uyim...”, “Mening katta uyim...” jumalari davom ettiriladi.	Refleksiya

Yakuniy refleksiya

Tarbiyachi: “Bugun Vatanimiz qayerdan boshlanishini bilib oldik. Qani, jummalarni davom ettiramiz.”

“Men oilamni...”

“Oilamga yordam berish uchun...”

“Mening kichik uyim...”

“Mening katta uyim...”

“Kichik uyim — oilam, katta uyim — O‘zbekiston!”

Tarbiyachi uchun metodik tavsiyalar

3–4 yoshli bolalarda ko‘proq ko‘rgazmalilik, qisqa savollar, takrorlash va sodda harakatlardan foydalaniladi.

4–5 yoshli bolalarda tanlash, farqlash, savol-javob va sodda ijodiy faoliyat kengaytiriladi.

5–6 yoshli bolalarda mustaqil fikr bildirish, “Nega?”, “Qanday?” savollariga javob berish, rasm, kollaj va kichik ijodiy ishlarni bajarishga ko‘proq imkon beriladi.

6–7 yoshli bolalarda mustaqil fikrlash, o‘z tanlovini izohlash, mavzu bo‘yicha kichik xulosa chiqarish va tayyor ishini qisqacha taqdim etish rag‘batlantiriladi.

Barcha bolalardan bir xil natija talab qilinmaydi. Tarbiyachi bolaning yosh va individual imkoniyatiga qarab yordam darajasini belgilaydi.

Keyingi mashg‘ulotga tayyorlov topshirig‘i

Tarbiyachi bolalarga keyingi mashg‘ulotda “Kichik uy — katta uy” mavzusida guruh loyihasi bajarilishini tushuntiradi va yoshiga mos tayyorlov topshirig‘ini beradi.

3–4 yosh: Ota-ona yordamida oila a‘zolari tasvirlangan 1–2 ta kichik surat yoki oddiy siluet tayyorlab keladi. Keyingi mashg‘ulotda ularni “kichik uy” tasviriga joylashtiradi.

4–5 yosh: Bola o‘z oilasi tasvirini yoki oilasini ifodalovchi kichik rasm tayyorlab keladi. Keyingi mashg‘ulotda bu rasmlar “Bizning oilamiz — bizning kichik uyimiz” umumiy plakatiga birlashtiriladi.

5–6 yosh: Bola “Mening oilam” mavzusida kichik rasm yoki bitta tasviriy element tayyorlaydi. Keyingi mashg‘ulotda guruh bilan “Kichik uy — katta uy” umumiy maketi yoki devoriy ishini yaratishda undan foydalanadi.

6–7 yosh: Bola oila, uy yoki Vatan mavzusiga oid bitta ijodiy elementni mustaqil tayyorlaydi. Keyingi mashg‘ulotda ushbu element “Kichik uy — katta uy” jamoaviy kompozitsiyasiga qo‘shiladi va bola o‘z hissasini qisqacha tushuntiradi.

Tarbiyachi uchun eslatma: topshiriqning maqsadi tayyor, mukammal mahsulot olib kelish emas, balki bolaning keyingi jamoaviy faoliyatga shaxsiy hissasi bilan kelishini ta‘minlashdi.